

**TANQIDIY TAFAKKURGA ASOSLANGAN TA'LIMDA ZAMONAVIY
YONDASHUVLAR VA AMALIY MISOLLAR**

Qayimova Sevara Dilshod qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti,

Xalqaro jurnalistika fakulteti talabasi

sevaraqayimova004@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu tezisdagi umumiy o'rta ta'lim va oliy ta'lim tizimidagi islohotlar va ularda tanqidiy tafakkurni qo'llashning foydali jihatlari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, ta'lim jarayonida tanqidiy tafakkurdan foydalanish bo'yicha tavsiyalar berib o'tiladi.*

Kalit so'zlar: *an'anaviy bilim, mavzuni baholash, sharq ta'limi, ma'lumotlarni tahlil etish, fikrlarni erkin bayon etish, "SWOT" tahlili, "SEE-THINK-WONDER" metodi, "6 shlyapa" metodi.*

KIRISH

Tanqidiy fikrlash – bu shunchaki shubha qilish emas, balki fikr bildirish, dalillar orasida mantiqiy bog'liqlikni izlash va voqealarga chuqur va ko'p qirrali yondashish san'ati desak mubolag'a bo'lmaydi. Ayniqsa, ta'lim tizimida bu qobiliyatni shakllantirish muhim hisoblanadi. Chunki, bu vaqtda o'quvchilarning ma'lumotlarni qabul qilish, tahlil qilish darajasi rivojlanish jarayonida bo'ladi. Bunda o'qituvchi o'z yondashuvi, uslubi va metodlari orqali o'quvchilarning tafakkur tarzini oshirib boradi va an'anaviy bilim berishdan farqli ravishda, o'quvchini fikrlovchi, savol beruvchi va diqqatli shaxs bo'lishiga yordam beradi. Bu jarayon nafaqat bilim samaradorligini oshiradi, balki ijtimoiy hayotda faol, izlanuvchan yoshlar bo'lishligiga ham turtki bo'ladi.

A.N.Shuman tanqidiy fikrlash tushunchasiga kompleks yondashuvni taklif etadi. Uning fikricha, tanqidiy fikrlash – bu mavzu bo'yicha argumentativ bo'lmagan usullarning namoyon bo'lishi. Bunday yondashuv eski fikrlarni tanqid qilish va yangi g'oyalarni ilgari surish orqali birlashtiriladi. Shuningdek, Shuman

quyidagi xususiyatlarni ajratib ko'rsatadi: izchillik, murakkablik, ketma-ketlik, ko'p istiqbollik, metakognitivlik. Bu orqali u tanqidiy fikrlashga keng qamrovli, ya'ni har tomonlama yondashishni taklif qiladi. Ya'ni mavzuni baholashda oddiy yoki tayyor fikrlarga emas, balki chuqur va asosli yondashuvni qo'llashdir. Bu yondashuv bevosita eski g'oyalarni emas yangi fikrlarni ilgari surishga undaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Hozirgi vaqtga qadar tanqidiy fikrlash masalasi MDH va xorij olimlari tomonidan turli jabhalarda o'rganilgan va o'rganilib kelinmoqda. Xususan, mamlakatimiz taraqqiyotida Sharq ta'limi mazmunini o'zida mujassam etgan ta'lim muassasalarimizda o'quvchilarni mustaqil tanqidiy fikrlashga o'rgatish zarurligi haqida o'rta asrlarning buyuk mutafakkirlari Xorazmiy, Forobiy, Ibn Sinolar ta'kidlagan. Jumladan, Farobiy "Fozil odamlar shahri" asarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishni juda muhim deb hisoblaydi. Unga ko'ra, haqiqiy bilimga erishish uchun odamlar mustaqil fikrlashlari, dalillarni sinchiklab tekshirishlari va turli fikrlarni tahlil qilishlari kerak. Farobiyning fikricha, ideal jamiyatda har bir fuqaro o'z fikrini asosli va mantiqan izchil tarzda ifoda eta olishi zarur.

Demak, bunga ko'ra tanqidiy tafakkurni bolalarning to'rt-besh yoshligidan boshlash maqsadga muvofiq. Chunki bu vaqtda ularda tanqidiy tafakkurning poydevori shakllanadi. Albatta, yosh bolalarda bu kabi jarayon ustida ishlash biroz murakkab vazifa talab etadi. Tuzilgan metodlar sodda, tushunarli, puxta ishlangan bo'lishi darkor. Dastlab ularni tasavvurlarini shakllantirish lozim. Atrofdagi har bir buyumni shakli, ranglari, nomlari o'rgatiladi. Chunki ular o'zlari foydalanadigan buyumlarni to'liq anglab idrok etishlari kerak. Shundan so'ng fikrlash doirasini rivojlantirish uchun turli rasmlar, shakllar, labirintli o'yinlar, konstruktorlar bilan ishlash mashqlari, mental arifmetika, mantiqiy savollar berish tavsiya etiladi. Shuningdek, bu bosqichda ularga "bu kim/nima?", "nima uchun?", "qanday qilib?" kabi savollarni berish orqali ham ularning fikrlash doiralarini oshirish mumkin.

Maktab yoshdagi o'quvchilarda metodlar biroz murakkablashadi. Chunki ularda boshlang'ich tasavvur tushunchalari rivojlangan bo'ladi. Albatta,

tanqidiy fikrlash – bu faqatgina bahslashish yoki e'tiroz bildirish emas, balki ma'lumotlarni chuqur tahlil qilish, mantiqiy xulosa chiqarish, qaror qabul qilish ko'nikmalarining jamlanmasidir. Bu bolalarda qanchalik erta rivojlantirilsa, ular hayotdagi muammolarni hal qilishda muvaffaqiyatli bo'ladilar. Shuningdek, fikrlash jarayonini tashkil etishning bir qancha modellari mavjud. Ular:

- shaxsiy ishonch;
- mehnatda faol ishtirok etish;
- do'stlar va o'qituvchi bilan fikr almashish;
- boshqalarning fikrini tinglay olish.

Darslar jarayonida o'quvchilar bilan ochiq va tahliliy savollar berish tavsiya etiladi. “Nega shunday?”, “Bunday bo'lsachi?”, “Qaysi holatda to'g'ri?” kabi savollar tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi, o'quvchilarda o'z fikrini asoslab berishiga yordam beradi. Berilgan mavzu yuzasidan yangi g'oyalar, yangi takliflar va o'zaro fikrlar almamashinadi. Keyingi bosqichda esa “debat” – bildirilgan fikrlarga munosabatlar beriladi. Bunda ishtirokchilar o'z xulosalarini asosli izohlab berishlari orqali tanqidiy tafakkurlarini namoyon qilishadi. O'quvchilarda tanqidiy tafakkurni rivojlantirishning zaruriy ahamiyat kasb etishi quyidagilar bilan izohlanadi.

1. Muammoni hal qilish ko'nikmalarini yaxshilaydi: Tanqidiy fikrlash ko'nikmalari o'quvchilarga muammolarni aniqlash, dalillarni baholash va yechimlarni ishlab chiqishga yordam beradi. Tanqidiy fikrlashni qo'llash orqali o'quvchilar muqobil yechimlarni aniqlashlari va baholashlari va eng mosini tanlashlari mumkin.

2. Ijodkorlikni rag'batlantiradi: Tanqidiy fikrlash o'quvchilarni o'z doirasidan tashqarida o'ylashga va muqobil istiqbollarni ko'rib chiqishga undaydi, ijodiy yechimlar va g'oyalarga olib keladi.

3. Qaror qabul qilishda yordam beradi: tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish orqali o'quvchilar qaror qabul qilishdan oldin bir nechta variantlarni baholashlari va ijobiy va salbiy tomonlarini topishlarini baholaydilar. Bu ularga dalillar va mulohazalarga asoslangan ongli qarorlar qabul qilishga yordam beradi.

4. Muloqot ko'nikmalarini oshiradi: Tanqidiy fikrlash o'quvchilarga o'z fikrlari va g'oyalarini yanada aniqroq va samarali ifodalashga yordam beradi.

5. O'quvchilarni kelajakka tayyorlaydi: O'quvchilar ta'lim jarayonida va kasbiy hayotlarida o'sib borishi bilan ular tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini talab qiladigan tobora murakkab muammolarga duch kelishadi. Ushbu ko'nikmalarni erta rivojlantirish ularni kelajkdagi ishlarida muvaffaqiyatga tayyorlaydi.

Bugungi kunga kelib texnologiyalar tez rivojlanayotgan, axborotlar oqimi esa kuchaygan davrda talabalar nafaqat yuksak darajada bilimga ega bo'lishlari, balki uni tanqidiy tahlil qilgan holda qo'llay olishlari ham talab etiladi. Shu boisdan oliy ta'lim muassasalarida tanqidiy tafakkur ko'nikmalarini shakllantirish dolzarb masalaga aylangan. O'z fikrlarini tizimli va tartibli ravishda bayon eta olmagan shaxslar, hatto to'g'ri xulosaga kelsalar ham uni yetkazishda muammolarga duch kelishlari mumkin. Shu bois, fikrlash jarayoni aniq tuzilishga ega bo'lishi, sabab va natija o'rtasidagi bog'liqlik aniq ifodalanishi muhim. Bundan tashqari, tanqidiy fikrlashni baholashda tahlil va sintez qilish qobiliyati alohida ahamiyatga ega. Chunki bu vaqtda talabalar katta hayotga qadam qo'yishgan, o'zlarining shaxsiy rivojlanishini boshlagan bo'lishadi.

O'zbekistonda olib borilgan tadqiqotlarga ko'ra, talabalar orasida tanqidiy fikrlash qobiliyatining yetarlicha shakllanmaganligi kuzatilmoqda. Jumladan, M. Qurbonov tomonidan o'tkazilgan tajriba asosida 300 nafar talaba orasida tanqidiy fikrlashning asosiy indikatorlari baholangan. Natijalar quyidagicha taqsimlangan: ijodiy yondashuv va muammoli fikrlash – 25% talabada yuqori darajada; tahliliy tafakkur qobiliyati – 40% talabada o'rtacha darajada; dalillarga asoslanish – 35% talabada yetarli emas. Natijalardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga oid strategiyalarni ishlab chiqish zarurati mavjud.

XULOSA

Tanqidiy fikrlash nafaqat ilmiy-nazariy muvaffaqiyat, balki kasbiy hayotda ham muhim o'rin tutadi. O'quvchilar va talabalarning ta'lim jarayonlarida ularga ko'proq hayotiy vaziyatlar taqdim etish lozim. Ular buni shaxsiy nazariyalari bilan

yechishlari kerak. Demak, zamonaviy o'qitish tizimida tahsil oluvchilar bilim oluvchi emas, balki bilimni yaratuvchi sub'ekt sifatida qaraladi. Shunday ekan, ular o'zlarining har qanday g'oyalarini jamoatchilik maydonida taqdim eta olishi lozim. Bunday metodikalar orqali shaxsiy fikrlarini qarama-qarshi nuqtai nazarlardan himoya qilishadi. Xulosa o'rnida muallif tomonidan ta'lim tizimida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga doir tavsiyalar berib o'tiladi:

- Darslar davomida o'rgatilgan teoremlar, qoidalarni o'quvchilar o'z nazariyalari bilan tushuntirib berishlari lozim. Bu orqali ular mavzuni tushunishlari va eslab qolish osonlashadi. Murakkab masalalarga duch kelishganda ham ilmiy izohlab bera olishadi;

- Boshlang'ich sinfdan boshlab bolalarni siyosiy jarayonlar va yangiliklar bilan tanishtirish va ulardan shu haqida munosabat bildirishlari so'rash. Bu metod orqali ular yon-atrofdagi bo'layotgan hodisalarni to'g'ri tahlil qila olishadi va siyosiy voqealarga to'g'ri sharh berishni o'rganishadi;

- “SWOT” tahlili metodini ko'proq qo'llash ham foydali. Bu usul orqali ularning fikrlarini to'g'ri yo'naltiriladi, to'g'ri baho berishga o'rganishadi. Shuningdek, muammo yoki tahlil qilinayotgan vaziyatning oqibatlarini ham ko'rib chiqishadi;

- “SEE-THINK-WONDER” metodi – o'quvchi va talabalar o'rganayotgan mavzuni yaxshiroq tushunishlari va fikrlarini erkin bayon etishlari uchun qo'llaniladi. Ularga fanlar doirasida rasmlar yoki videolar kabi vizual vositalar taqdim etiladi. Auditoriya ishtirokchilari ma'lum vaqt ichida ko'rganlarini izohlab berishlari kerak. Bu metod yakka tartibda o'tkazilganligi bois har bir tinglovchilar bilan alohida ishlanadi va ularga to'g'ri yo'nalish beriladi.

- “6 shlyapa” metodi – har bir shlyapada o'ziga xos fikrlash jarayoni bor:

“Oq shlyapa” – faktlar, ma'lumotlar va raqamlar haqida axborot beradi va tavsiyalar berib o'tadi;

Qizil shlyapa: muammo orqali qanday his-tuyg'ular paydo bo'lishini, jamoatchilik hayotiga ta'sir qiluvchi salbiy oqibatlarini o'rganadi;

Qora shlyapa: asosan bunda ro'y berishi mumkin bo'lgan xatolar va xavflar aniqlanadi;

Sariq shlyapa: muhokama qilinayotgan mavzuning ijobiy tomonlari, imtiyozlar va foydalariga e'tibor qaratadi.

Yashil shlyapa: muammo bo'yicha g'oyalar va yechimlarni izlash bo'yicha takliflarni beradi.

Moviy shlyapa: jarayonni boshqaradi, tomonlardagi muammolarni tahlil qiladi va maqsadga erishish yo'llarini tavsiya etadi. Ya'ni barcha jarayonlar tugagach yakuniy xulosa beradi.

Bu usul orqali jamoaviy ishlash ko'nikmalari shakllanadi, bildirilgan fikrlar tartiblanadi, munosabatlar to'g'ri yo'naltiriladi, mavzu har tomonlama ko'rib chiqiladi va unga yechim topish ham osonlashadi. Bu metodni bevosita o'rta va oliy ta'limda qo'llash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. G.R.Akramova. "O'quvchida tanqidiy tafakkurning rivojlanishi – ijtimoiy munosabatlarga tayyorlik kafolati" // Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar jurnali. 2023-yil №3.
2. foundation.org "See, Think, Wonder"
https://kaporfoundation.org/strategies_guide/see-think-wonder/#:~:text=See%2C%20Think%2C%20Wonder%20is%20an%20inquiry%2Dbased%20learning,media%2C%20such%20as%20photographs%2C%20illustrations%2C%20or%20videosP.K.Grigorevna. "Tanqidiy fikrlash haqida qarashlar" // Journal of new century innovations.
3. U.K.Kadirova. "Maktabgacha yoshdagi bolalarda tanqidiy fikrlashni shakllantirish: zamonaviy pedagogik yondashuvlar va interaktiv metodlar".
4. Sh.B.Ismoiljonov "Ta'lim jarayonida tanqidiy fikrlashning rivojlanishi va uning ahamiyati" // ReFocus ilmiy jurnali
5. Sh.Allamov. "Talabalarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini baholash indikatorlari va diagnostikasi" // Theoretical and methodical journal-scientific. 2025.